



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Xamidullo Xamrakulov

Farg'ona viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI O'QITUVCHISINING O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH VA KASBIY O'SISHINI TA'MINLASH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisining o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sishini ta'minlash masalalari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, unda o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishi va kasbiy o'sishi uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, fikr, informatika, ma'lumot, metod, tushuncha, uslub, vosita, o'quvchi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta'kidlaganidek: "... bugun zamon shiddat bilan o'zgarib, barcha sohalar qatori ta'lim tizimi oldiga ham o'ta dolzarb va murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Biz dunyo miqyosidagi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yaratishimiz zarur". Chunonchi, mutaxassislarning fikricha, hozirgi davr oliy ta'lim muassasalarida qanday shaklda, qaysi

talablarga javob bera oladigan pedagoglarni tayyorlash kerak, degan savolga javob topish dolzarb masalaga aylanib qoldi.

Bu masalaga yechim sifatida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan UNISEF xalqaro bolalar tashkiloti ko‘magi va ta’lim tizimidagi qator tashkilotlar hamkorligida “Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi kasb standarti” ishlab chiqildi. Mazkur standart **o‘qituvchilarning malakasini oshirishga ko‘maklashish, o‘qituvchilar faoliyatini mazmunli baholashni ta’minlash, kerak bo‘lganda qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini aniqlashni nazarda tutadi.**

Ma’lumki, har bir kasb standarti belgilanar ekan, unda o‘sha kasb egalari uchun talablar ham qo‘yiladi.

Quyida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisining o‘z-o‘zini rivojlantirishi va kasbiy o‘sishi uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar haqida so‘z yuritiladi.

Jumladan, maktab o‘qituvchisi o‘z-o‘zini rivojlantirishi va kasbiy o‘shini ta’minlash uchun o‘z-o‘zini baholash jarayoni, kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, o‘zining kasbiy rivojlanishini rejalashtirish, xorijiy tillardan birining boshlang‘ich bosqichi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, nutq madaniyatiga rioya qilishni bilishi zarur. Shuningdek, u quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:

- o‘zining kasbiy o‘sishi, shu jumladan o‘z-o‘zini rivojlanish yo‘lini aniqlash;
- o‘zining ta’lim faoliyatini tahlil qilish va baholash, modifikatsiyani talab qiladigan yo‘nalishlarni aniqlash;
- kasbiy rivojlanishida AKT muhitidan foydalanish;
- zaruriyat bo‘lganda faoliyatida chet tilidan foydalanish.

Bundan tashqari o‘qituvchi huquqiy, axloqiy va odob me’yorlariga, kasb odobi talablariga, ijtimoiy kompetensiyalarga rioya qilishi kerak. O‘z-o‘zini takomillashtirish va kasbiy rivojlanish o‘zini o‘zi baholash va kasbiy o‘shini boshqarish bo‘yicha quyidagi kompetensiyalarni nazarda tutadi: kasbiy rivojlanish uchun o‘z ehtiyojlarini anglay olish va tahlil qila bilish, o‘qituvchining ixtiyoridagi vositalardan (mutaxassislik bo‘yicha materiallar va adabiyotlar, malaka oshirish kurslari, boshqa mutaxassislarning ekspertizalari, o‘z faoliyati natijalari) uzluksiz kasbiy rivojlanish maksadida foydalanish va boshqarish.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi yuqorida bayon etilgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘lishi uchun muntazam malaka oshirish kurslaridan o‘tib turishi, doimiy ravishda fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo‘llab borishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari seminar va treninglarda, shuningdek

kasbiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan boshqa tadbirlarda, maktab uslubiy kengashlarida qatnashish o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishi va kasbiy o'sishida muhim o'rin tutadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilariga yuqorida qayd etilgan ko'rsatmalarga amal qilish bilan birga o'z-o'zini rivojlantirishi va kasbiy o'sishini ta'minlashda o'zaro darslarda qatnashish, ularni tahlil qilish, undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish, o'z tajribasini namoyish etish uchun ochiq darslarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish, o'zining ta'lim faoliyatini (kuchli va zaif tomonlarini) yetarlicha baholash va kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilay olish, o'zining ish amaliyotida kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 maydagi "O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi 287-son qarori.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar - Yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 1-oktabr, 207-son.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi kasb standarti. – T.: Xalq ta'limi vazirligi, 2021.
4. Xalq ta'limi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari. – T.: Xalq ta'limi vazirligi, 2018.
5. www.lex.uz
6. www.uza.uz.